

Shoh Va Shoirning Volidasi – Qutlug' Nigorxonim

G'aybullayeva Baxshanda Baxshullayevna

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Buyuk insonlarni voyaga yetkazgan buyuk onalar ham tarixda o'chmas iz qoldirishgan. Shunday ayollardan biri – Bobur mirzoning volidasi Qutlug' Nigorxonimdir. Ushbu maqolada temuriylar xonadoni malikasining hayot yo'li tarixiy va badiiy manbalarda qanday talqin qilinganligi qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Qutlug' Nigorxonim, Bobur, “Boburnoma”, “Vaqoe”, “Tarixi Rashidiy”, “Yulduzli tunlar”.

Kirish. Buyuk davlat arbobi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishida oiladagi muhit, ayniqsa, onasi Qutlug' Nigorxonim va buvisi - Qutlug' Nigorxonining onasi Esandavlatbegimning hissasi katta hisoblanadi. Biz bunga “Boburnoma”, “Yulduzli tunlar” va shu kabi ko'plab tarixiy va badiiy asarlarni o'rganish orqali amin bo'lishimiz mumkin. Bugungi kunda dunyo adabiyotshunoslari va tarixchilarining Bobur hayoti va asarlariga qiziqishi ortib bormoqda, shu bilan birga uning hayotida yuqori o'rin egallagan volidasi Qutlug' Nigorxonim ham olimlar tomonidan jiddiy o'rganilib kelmoqda. Qutlug' Nigorxonim tariximizda o'z davrining zukko, ilmi va oqila ayoli sifatida nom qoldirgan, shu sababdan ham yozuvchilarimiz o'z asarlarida “Boburnoma”dagai ma'lumotlardan farqli o'laroq uni turlicha tasvirlashgan.

Materiallar. O'zining oqila, dono va vafodorligi bilan tariximizda o'ziga xos o'rin egallagan, “Boburnoma”da eng ko'p tilga olingan xotin-qizlardan biri Qutlug' Nigorxonim hisoblanadi. Boburning memuarida Qutlug' Nigorxonim obrazi har tomonlama badiiy dalillangan falsafiy teranlikda tasvirlangan. Umarshayx Mirzoning xotini, chingiziy aslzodaning g'oyatda nazokatli, oqila, qat'iyatli, tadbirkor ayol ekanligi Bobur Mirzo taqdiri bilan bog'liq ravishda tarixiy voqealar bayoni nomoyon bo'lib, tabiiy ravishda nazarga tashlanadi. “Boburnoma”da nazarga tashlanadigan ona va o'g'il taqdiri, ona va o'g'il bosgan qadam, ona va o'g'il yurgan yo'l bir-biridan uzoq yo'llar emas, balki bir-biri bilan chirmashib, chatishib ketgan. “Vaqoe” muallifi o'z umr kitobining “Sakkiz yuz to'qson to'qqizinchi” (milodiy 1494) yil voqealari bayoniga bag'ishlangan dastlabki qismida o'z volidasini kitobxonga quyidagicha tanishtiradi: “...uch o'g'ul, besh qiz Mirzodin (Umarshayx Mirzo) qolib edi. Bori o'g'lonlaridan uluq, men – Zahiriddin Muhammad Bobur edim, mening onam Qutluqnigor Xonim edi”. [1, 11] “Boburnoma” muallifi onasining ulug' xonadon vakili ekanligiga ko'p bora ishora qiladi: “Qutlug'nigor Xonim Yunusxonning ikkinchi qizi, Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxonning egachisi edi. Yunusxon Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoy. Yunusxon ibn Uvaysxon ibn Sherali o'g'lon ibn Muhammadxon ibn Xizr Xojaxon ibn Tug'luq Temurxon ibn Esan Bo'g'axon ibn Do'vaxon ibn Baroqxon ibn Yesun Tuva ibn Mo'tog'on ibn Chig'atoyxon ibn Chingizxon”. [1, 12] “Boburnoma”dan keltirilgan iqtibosdan Qutlug'nigor Xonimning otasi Yunusxon o'n ikkinchi avlod bilan Chingizxonga tutashgani aniq bo'ladi.

Tadqiqot va usullar.

Qutlug' Nigorxonimning onasi Onasi Esandavlat begim bo'lib, ushbu zukko va tadbirli ayolning kelib chiqishi mo'g'ul xonlariga borib taqaladi. Esandavlat Begim mo'g'ul beklarining ulug' maqomga ega vakili Sher Hojibekning qizi bo'lgan. “Vaqoe”dan o'qiyimiz: “Ul fursatda Sag'richi beklarning ulug'i Sher Hojibek erdi. Yunusxon aning qizi Esandavlat Begimni oldi. Mo'g'ul urf-

odatlariga ko'ra, mo'g'ul to'rasi xonni va Esandavlat Begimni bir oq kiygiz ustiga o'lturg'izib xon qilib ko'tardilar"[1, 45] Esan Davlatbegimning yuqori tabaqagamansub oiladan kelib chiqishi xon bilan birgalikda oq namat ustiga o'tirishi – to'la ma'noda unga shu mamlakatning bosh malikasi huquqini bergan. Yunusxon oilasi va davlatiga uzoq yillar halol xizmat qilib, o'z nomini shon-shuhratga chulg'agan Esandavlat Begim mamlakat va uni boshqarish sohasida yetarli tajribaga ega bo'lgan. U davlatni idora etishdagi eng kichik muammolardan tortib, katta masalalargacha o'z tajribasidan kelib chiqib atroflicha baholagan. Esandavlat Begimning uzoq yillar davomida to'plagan siyosiy tajribasi 12 yoshida Farg'ona viloyati taxtiga o'tirgan nabirasini siyosiy bo'ronlar va fitnalardan himoya qilishda qo'l kelgan. Bu borada Bobur Mirzoning o'zi ham hayot yo'lida unga ulkan ko'mak bergan ulug'onasi shaxsiyatiga yuksak muhabbat va rag'bat bilan qaragan: "Xotunlar orasida ra'y va tadbirda mening ulug'onam Esandavlat Begimcha kam bo'lg'ay edi. Bisyor oqila va mudabbira edi. Ko'proq ish - kuch alarning mashvarati bila bo'lur edi". Ixcham iqtibosda o'z individual qiyofasiga ega bo'lgan shaxsning takrorlanmas timsoli badiiy ta'sirchan tarzda hosil qilingan. "Vaqoe" muallifining yuqoridagi fikrlariga uyg'un va quvvatlovchi fikrlar boshqa manbalarda ham mavjud. Esandavlat Begim aql va tadbirda yuqori, mamlakat boshqaruvida faol ayol edi. [4, 14]

Yunusxon Esandavlat Begimdan, uch qiz farzan ko'rgan. Ular Mehr Nigorxonim, Qutlug' Nigorxonim va Xo'b Nigorxonimdir. Yunusxon temuriylar bilan aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida uch qizini Abusa'id Mirzoning uch o'g'liga turmushga uzatgan. Yunusxonin o'rtanchi qizi, ya'ni Bobur Mirzoning onasi Qutlug' Nigorxonim Abusa'id Mirzoning to'rtinchi o'gli Umarshayx Mirzoga nikohlanadi. Bu nikoh temuriylar uchun ham kata manfaat keltirgan, ya'ni Mo'g'uliston tomonidan bo'ladigan xavflar deyarli barham topadi, mamlakatda osoyishtalik hukum sura boshlagan. Oradan vaqt o'tib 1475-yilda Qutlug' Nigorxonim kelin sifatida Farg'onaga olib kelinadi.

Bobur Mirzo tarixiy shaxslar tarjimai holini yoritish uchun tuzgan dasturning yettinchi bandi ham o'sha davr uchun xos (tipik) bo'lgan muammoni talqin qilishga xizmat qiladi: "Xavotin va sarori (Xotinlari va kanizlari)". Bobur Mirzo shaxsiyatiga xos qat'iyat, rostgo'ylik halollik sarlavhada o'z ifodasini topgan. Farg'ona hukmdori xotinlarining nomi "Boburnoma"da birma-bir tilga olingan. Qutlug'nigor Xonim, Ulug' Og'a, Fotima Sulton Og'a, Qorako'z begim. Mirzo Bobur Umarshayx Mirzoning xotinlari nomini zikr qilar ekan, ro'yxatning boshida o'z validasi Qutlug'nigor Xonim nomini raqam qiladi. "Vaqoe" ma'lumotlariga ko'ra, Umarshayx Mirzo naslididir birinchi uylangan qiz Fotima Sulton Og'a bo'lib, u ham mo'g'ul tuman beklari avlodidan bo'lgan. Shu bilan birga yozuvchi Pirimqul Qodirov ham o'zining "Yulduzli tunlar" romanida ham Umarshayx Mirzoning birinchi uylangan ayoli sifatida Fotima sulton nomini keltirgan hamda "Dasturxon atrofida eng mo'tabar hisoblangan, Umarshayx Mirzoning o'ng tomonga esa, Qutlug' Nigor xonimni taklif qildi. Xonim — taxt vorisi Zahiriddin Muhammad Boburning onasi edi, uning o'ng tomonida o'tirishi adolatdan ekanini kichik xotinlar tan olar edilar. Ammo Fotima Sulton o'zining hurmati Qutlug' Nigor xonimnikidan past ekanini yana bir marta his qilib, ko'zlari alam bilan qisildi"[5, 45]deya tasvirlangan. Haqli ravishda Qutlug' Nigorxonim bo'lg'usi podshohning onasi sifatida bunday ehtiromga loyiq edi.

Boshqa temuriy malikalardan farqli o'laroq "Boburnoma"ning biror yerida Qutlug'nigor Xonimning turmush o'rtog'i Umarshayx Mirzo hukmronligi davrida saltanat ishlariga aralashganligi haqida ma'lumot uchramaydi, Qutlug'nigor Xonimning mamlakat birligi va daxlsizligi uchun faol harakati hijriy sakkiz yuz to'qson to'qqizinchi yili, ramazon oyining beshinchisida, seshanba kunidan (milodiy 1494-yil 10-iyunda) 12 yashar o'g'li Zahiriddin Muhammad Boburning Farg'ona viloyati podshohligi taxtiga o'tirishi bilan boshlanadi. Chunki shu voqeadan bir kun oldin, 38 yoshni qarshilagan, uning turmush o'rtog'i Umarshayx Mirzo qal'a ustida joylashgan kabutarxonadan jarga qulab, vafot etadi. Shu damda turli tahlikalar ostida qolgan mamlakat ikki o't orasida qolgan bir vaziyat edi. Umarshayx Mirzo vafotini eshitgandan so'ng Qutlug' Nigorxonim ruhan tushkunlikga tushsa-da, ona sifatida o'z o'g'lining kelgusi taqdirini o'ylaydi. Yoridan ayrilgan, yolg'iz o'g'li taqdiri haqida tashvishga tushgan onani va unga qirshi turgan kundoshining holatini yozuvchi Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" romanida shunday

tasvirlaydi: “Qutlug‘ Nigorxonim ko‘z yoshlarini artib, o‘z xonasiga chiqdi va eng ishongan amirlaridan Qosimbekni chaqirtirdi. Uni topib kelgunlaricha Andijon, chorbog‘ida Bobur bilan birga turgan onasi Eson Davlat begimning nomiga maktub yozdi. Bu paytda uning kundoshi Fotima Sulton begimning topshirig‘i bilan Andijonga yashirincha jo‘nagan Ahmad Tanbal bu orada Sirdaryo ko‘prigidan o‘tib, Bandi Solor yo‘li bilan ancha joyga borib qolgan edi. Ko‘zga tashlanmaslik uchun bittagina navkar ergashtirib ketayotgan Ahmad Tanbal kecha Andijondan kelgan kelgan edi. Bugun Fotima Sulton unga kata vadalar berdi. Agar Axmad Tambal sodiq beklarining boshini qovushtirib, Boburni chetlatsa-yu taxtga Jahongir Mirzoni o‘tqazsa, marra uniki”. [2, 13]

Natijalar.

Boburni ko‘z qorachig‘iday asrashni Eson Davlat begimga topshirib, chorbog‘ va qasrni hamma xizmatkorlari bilan uning ixtiyoriga berib qo‘yilgandi, bolalarcha beg‘ubor, ot choptirib yurgan Bobur Mirzo uni kutib turgan xatarlardan mutlaqo bexabar edi. Umarshayx Mirzoning vafotidan barcha xabar topgach, ayrim beklar Boburni taxtdan ag‘darish payiga tushadilar, ana shunday tahlikali, keskin, siyosiy vaziyatda Qutlug‘nigor Xonim onasi Esandavlat Begim birga komil ishonch bilan beklarni va amirlarni birdam va hamjihat bo‘lib, mamlakatni mudofaa qilishga chorlaydi. Bek va amirlarning kechagina taxtga o‘tirgan yosh podshohdan yuz o‘girmasligi, unga ishonchsizlik bilan qaramasligi, odamlar orasida parokandalik quloq yozmasligi uchun butun vujudi bilan harakat qiladi. Qutlug‘ Nigorxonim to‘ng‘ich farzandi Xonzodabegimni ham juda oqila va dono qilib tarbiyalaydi, u hozirga qadar yozilgan barcha tarixiy va adabiy manbalarda mard va shijoatli, oqila va mehribon, sabrli ayol sifatida talqin qilinadi. Qutlug‘ Nigorxonim bilan birgalikda Xonzodabegim ham Boburning eng buyuk ilhomlantruvchisi, maslakdoshi bo‘lgan [5, 23] Bobur taxtga o‘tirgacha onasi ,opasi va buvisining maslahatlari va ishongan sarkardalari bilan juda ko‘p janglarda g‘alaba qozonadi, mamlakatni obod qilish yo‘lida juda ko‘p islohotlar olib boradi.

Ammo shunday vaziyatlarda unga pand beruvchilar ham yo‘q emas edi, jumladan o‘n ikki yashar Farg‘ona podshosi Bobur Isfaraga qo‘shin tortadi. Qirq kunlik qamaldan so‘ng otameros Isfarani o‘z tasarrufiga oladi. Yo‘l-yo‘lakay marhum amakisi Sulton Ahmad Mirzoning Axxsi ustiga harbiy yurishi paytidan boshlab qo‘ldan chiqqan Xo‘jandni o‘ziga bo‘ysundiradi. O‘ratepaga yurish qiladi. O‘ratepa hokimligiga amakivachchasi Sulton Ali Mirzo akasi Samarqand podshosi Boysung‘ur Mirzo tomonidan tayinlangan edi. Boburning xabarini eshitgan Sulton Ali Mirzo O‘ratepani tashlab chiqadi. O‘ratepa oson qaytarib olinadi. Bobur Andijonga qaytadi. U Farg‘onaga jo‘nashi bilan O‘ratepani Toshkent xoni Qutlug‘nigor Xonimning ukasi Sulton Mahmud egallaydi va uni pochchasi Muhammad Husayn Ko‘ragon Do‘g‘latga in‘om qiladi. Muhammad Husayn Qutlug‘nigor Xonimning singlisi Xo‘bnigor Xonimning eri edi. Ko‘rinadiki, 12 yashar podshoh qo‘ldan chiqqan yerlarini qaytarib olish, o‘z qalamravidagi yurtning sarhadlarini dushmandan tozalash uchun yo ota tomonidan, yo ona tomonidan o‘ziga yaqin qon-qarindosh bo‘lgan amaldorlar bilan kurashishga majbur bo‘lgan. Siyosiy hokimiyatning bunday shafqatsiz talab-tamoyillarini qabul qilish oqila va ko‘ngilchan, qavm-qarindoshlarini va farzandlarini chin ko‘ngildan sevgan, mehr-muhabbatli ona uchun oson bo‘lmagan. Qutlug‘nigor Xonim muttasil xavotirda yashagan. Allohdan o‘g‘liga panoh, qavmi-qarindoshlariga tavfiq tilashdan o‘zga chorasi bo‘lmagan. Ko‘p o‘tmay Farg‘ona hududidagi qonli janglar vodiyan Samarqandga ko‘chadi. Akasi Sulton Ahmad o‘lgach, unga tobe Samarqand va Buxoroni o‘z qo‘liga olgan Sulton Mahmud ham besh-olti oy o‘tar-o‘tmas hayotdan ko‘z yumadi. Sulton Mahmudning o‘g‘illari – Boburning amakivachchalari Sulton Ma‘sud Mirzo, Boysung‘ur Mirzo va Sulton Ali Mirzo Samarqand toj-u taxti uchun kurash boshlaydilar. Otarlarining go‘ri sovimay hokimiyat uchun birbirlariga tig‘ ko‘tarishdan hazar qilmagan bu amalparast shahzodalarning birontasi ham davlatni boshqarish qobilyatiga ega emas edi.

Muhokamalar.

Bobur Mirzoning Samarqandga qo‘shin tortib borishiga ikkita asosiy sabab bor: 1. Samarqand Sohibqiron Amir Temur asos solgan buyuk davlatning poytaxti edi. Uni egallash jismu jonini Sohibqiron qoni harakatga keltirgan har bir temuriy shahzodaning orzusi bo‘lgan. 2. O‘lis yurtlardan

Shayboniyxon dovrug‘i eshitila boshlagan edi. Bu ovoz hali temuriylarning o‘sha davrdagi “qalin cheriklik va vase’ mulklik” (Bobur) eng mashhur hukmdori Sulton Husaynga yetib bormagan. Husayn Boyqarodek ulug‘ podshoh o‘z farzandlari bilan murosaga kela olmay, mamlakatdagi ichki nizolarni bartaraf qilish bilan band bo‘lgan. Farg‘onaning yosh, ziyrak podshosi Mirzo Bobur siyosiy vaziyatga avvaldan to‘g‘ri va aniq baho bera olgan. Sohibqiron katta bobosi va temuriy bobolari[9] poytaxtini Abulxayrxon avlodiga berib qo‘yishni o‘ziga or bilgan. Shuning uchun ham yosh bo‘lishiga qaramasdan, siyosiy maydonga mardonavor chiqqan. Ota qoni va ona suti bilan o‘tgan oriyat va nomus kabi tuyg‘ular Bobur Mirzo shaxsiyatida baland edi. Qutlug‘nigor Xonim o‘g‘lining Samarqand harbiy amaliyotiga qarshilik ko‘rsatmagan. Chunki oqila va tadbirli ayol sifatida bobomeros Samarqand taxti uchun kurash har bir temuriyzodaning taqdiriga bitilganligini yaxshi his qilgan [3,45]

Ammo bu holat “Yulduzli tunlar” romanida quydagicha tasvirlangan: “Qutlug‘ Nigor xonim endi o‘n besh yoshga kirgan o‘g‘lining bu talashlar va adovatlarga aralashmasdan, o‘z mulkida osoyishta hukm surishini istardi. U Boburning alamdan o‘zgarib ketgan yuziga onalarcha qayishib qaradi-yu, unga joni dilini bergisi kelib gapirdi: — Boburjon, so‘zimga ishoning, bu besh kunlik dunyo sizning kuyunishingizga arzimaydir! Onasi o‘g‘lini podshoh bo‘lmasidan oldingi nomi bilan atab, mehri tovlanib gapirgani Boburga juda yoqimli tuyuldi. Bir lahza u o‘zini mehribon bir onaning beg‘am, betashvish bo‘taloq o‘g‘lidek sezdi-yu, yelkasidagi katta yuk yerga tushgandek yengil tortdi. — Vaqti-soati kelur, Samarqand orzusiga ham yetishursiz, — deb davom etdi Qutlug‘ Nigor xonim. — Biroq hozir raiyyat osoyishta umr ko‘rishga mushtoq. Qanotingiz ostida Qosimbekdek tadbirkor amiru umarongiz bor. Mana shu O‘shdagi hujrani qurgan me‘mordek hunarpehshalar sizning xizmatangizda. Endi onangiz sizdan iltimos qilur: Samarqand muhoribasini besh-olti yilga kechiktirsangiz. Barchamizga bosh bo‘lib, vodiyni obod qilsangiz, Andijonda, Marg‘ilonda, O‘shda katta obidalar qursangiz! Qutlug‘ Nigor xonim podshoh o‘g‘liga ko‘pdan beri bunchalik jiddiy, bunchalik qat‘iy iltimos bilan murojaat qilmagan edi.[2, 46]

Mirzo Bobur Samarqandni egallagach u yerda ham mamlakat ravnaqi yo‘lida ulkan islohotlar olib boradi. Bobur Mirzo uylangach, Qutlug‘nigor Xonim farzandi oilasi mustahkam bo‘lishi uchun hamisha harakat qiladi, Qutlug‘nigor Xonimning ona sifatidagi xarakterini ochishda “Boburnoma”dagi quyidagi parcha muhim ilmiy qimmat kasb etadi. “Sulton Ahmad Mirzoning Oyshabegim nomli qizini ota va amakisi tirik ekanida menga qalinlik qilib edilar. Xo‘jandga kelgandi, shabon oyida oldim. Olganimda avval mehrim yomon bo‘lmasa-da, lekin birinchi uylanishim erdi. Hayo va tortinchoqlik bois har o‘n, o‘n besh, yigirma kunda bir borardim. So‘ngralar u mehr ham qolmadi. Biroq tortinish hanuz ko‘proq bo‘ldi. Bir oyda va qirq kunda onam xonim iltimoslar bilan zo‘rlab-zo‘rlab, tashvishlar bilan yuborardi”.[3, 41] Samarqand Sulton Mahmudning o‘g‘illari orasida qo‘ldan qo‘lga o‘tib toju taxt uchun kurash, ichki nizolar avjiga chiqadi. “Boburnoma”dan o‘qiymiz: “Sulton Mahmud Mirzodan so‘ng Boysung‘ur Mirzoni podshoh qildilar. Tarxonning g‘avg‘osida Boysung‘ur Mirzoni tutub, inisi Sulton Ali Mirzoni birikki kun o‘lturg‘uzdilar. Yana Boysung‘ur Mirzo – o‘q oldi”.59 Azim shahar urush va tala-tortlar oqibatida xarob holga kelib, elning sabri tugaydi. 1497-yilda Bobur Mirzo ikkinchi marta qo‘shin tortib kelib Samarqandni Boysung‘ur Mirzo qo‘lidan oladi. Bu voqeani shahar ulug‘lari, beklar va oddiy xalq katta shodiyona bilan qarshilaydilar. Bobur mirzo samarqandni egallagach u yerda ham mamlakat ravnaqi yo‘lida ulkan islohotlar olib boradi. Ammo xursandchilik uzoqqa cho‘zilmaydi. Andijonda qolgan beklar xiyonat yo‘liga o‘tadilar [5, 67]. Qutlug‘ Nigorxonimning kundoshi Fotimasulton Begimning o‘g‘li Jahongir Mirzoni Farg‘ona taxtiga o‘tqazish uchun kurash boshlaydilar. Andijon qamal qilinadi. Qutlug‘nigor Xonim, onasi va boshqa yaqinlari bilan qamalda qoladi. O‘g‘liga maktub yo‘llaydi. “Vaqoe”dan o‘qiymiz: “Muxosara muddatida mening onam volidam Xoja Qozidin muttasil, bu mazmun bila xatlar kelur edikim, bu jamoati haromnamak bizni muxosara qilibturlar. Agar kelib faryodimizga yetmasangiz, ish vubol bo‘lg‘usidir”.[13]Xiyonat – og‘ir jinoyat. Qutlug‘nigor Xonimning qizlik yillari Yunusxonning Qoshg‘ar, Yettikent, Oqsuv shaharlaridagi saroyida o‘tgan. U 1475- yilda Farg‘onaga kelin bo‘lib kelgan. Chingiziy sanam Umarshayx Mirzo saroyida 20 yilga yaqin kechgan hayoti davomida saroy ayonlari va beklarning qalbida pinhon yotgan qabih niyatlar, shubhali xatti-harakatlardan xabardor bo‘lgan. Ammo oq

ko'ngil malika Farg'ona davlatiga uzoq yillar sadoqat bilan xizmat qilgan Ahmad Tanbal va Uzun Hasan kabi beklarning yosh podshoh o'g'lining ishonchini suiiste'mol qilishishini xayoliga ham keltirmagan. Xiyonatkorlar qurshovida qolgan Vatani, onasi, katta onasi (buvisi) va opasining taqdirini o'ylab Mirzo Bobur qattiq iztirobga tushadi. Og'ir xastalikka chalinadi: "To'rt kungacha tilim tutildi, og'zimga paxta bila suv tomizurlar erdi".[3,514] Fitna boshida turgan beklardan biri Uzun Hasan Samarqandga yuborgan navkar yurtidagi vaziyatni Andijon ishonib topshirib kelingan bek Ali Do'st oldida ont ichib so'zlaydi. Uning so'zlarini eshitgan Ali Do'st Boburdan umidini uzib, shaharni Bobur kelganicha himoya qilib turish imkoniyati bo'lsa-da Andijon darvozalarini muxolif tomonga ochib beradi. Hafta – o'n kun ichida biroz sog'ayib, Samarqandni tashlab, Andijonga qarab yo'l olgan Mirzo Bobur Xo'jandga yetib keladi. Andijondan kelgan chopar esa, bir hafta burun, Bobur Samarqanddan chiqqan kuni Ali Do'st shaharni Ahmad Tanbal va Uzun Hasan boshchiligidagi xiyonatkorlarga topshirganligi haqidagi xabarni keltiradi. Bobur Mirzoning Samarqandda og'ir kasal holida yotganligi haqidagi xabar Qutlug'nigor Xonimni chuqur qayg'uga botirgan. Yolg'iz o'g'lining hayoti qil ustida. Chorak asr davomida uni saroyning bosh malikasi, haramning ulug' bekasi sifatida ulug'lab kelgan Farg'ona saltanati tubsiz jar labida. Bunday vaziyatda Qutlug'nigor Xonimning ruhan ezilganini his qilish mumkin. Ammo unda biron marta ikkilanishni o'zi va podshoh o'g'li ishonchiga nisbatan shubhalanishni, irodasizlikni, sabrsizlikni, o'zini zaif, ojiza his etganini ko'rmaymiz. Andijonni o'z qo'liga olgan xiyonatchilar Boburning ustoz va piri Xoja Mavlono Qozini Ark darvozasiga osib shahid qiladilar. Qutlug'nigor Xonimni, qizi Xonzoda Begim va onasi Esandavlat Begim bilan birga shahardan chiqaradilar. Bobur Mirzo ko'chko'roni bilan Vatani tark etishga majbur bo'lgan onasi va boshqa yaqinlari bilan Xo'jandda uchrashadi. "Mening onamni va ulug' onamni ba'zi mening bila qolg'onlarning ko'chlari bila Xo'jandqa mening qo'shimga yubordilar"[3, 65]. Ham Samarqanddan, ham Farg'ona taxtidan mosuvo bo'lgan Zahiriddin uchun sarguzashtli hayot boshlandi.

Xulosa.

904-yilning zulqa'da (1499-yil iyun, iyul) oyida ikki yildan keyin Andijonni qaytib egallaydi. Otameros yurtida tinchlik o'rnatishga kirishadi. Ammo ko'p o'tmay, Shayboniyxonning Buxoroni egallab, Samarqand tomon kelayotganini eshitadi. Sara jangchilardan tuzilgan bek va yigitlari bilan Samarqandga yuzlanadi. Ammo amakivachchasi Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrebegimning erga tegish havasi bilan Samarqand jangu jadalsiz Shayboniyxon tasarrufiga o'tgan edi. Samarqandni qo'lga kirita olmagan sarkarda yurish-turishi noma'lum holda Kesh va Hisor viloyatlari o'rtasida sarson kezadi. Tavakkal qilib, tun yarmidan oshganda qal'a devori orqali Samarqandga kirib, Movorounnahrning qadimiy poytaxtini Shayboniyxondan tortib oladi. Ammo tarixiy vaziyat taqazosiga ko'ra, yana uni qo'ldan chiqaradi. Samarqand orzusi baland kelib, Farg'onani ham yana boy beradi. Dahkat, Mascho va Obburdon yerlarida darbadar kezadi. Buning ustiga xiyonatchilarning sardori Ahmad Tanbal ta'qibni kuchaytiradi. Yigitlari to'rt tomonga tarqalib ketgan sarkardaning boshi uchun qotil yollab, katta boylik va'da qiladi... Bularning hammasi Bobur Mirzoning tarixiy shaxs sifatida achchiq, g'oyat murakkab, keskin ziddiyatlarga to'la hayotidan ayrim lavhalar, xolos. Qutlug'nigor Xonim Bobur Mirzo hayotining fojialarga to'la sahifalarining aksariyat davrida o'g'li bilan birga bo'lgan. Birga bo'lmagan paytlarida ularni ko'rib, bilib, eshitib turgan. Temuriylar saltanatini saqlab qolishga ega shaxs sifatida o'g'liga umid ko'zlarini tikkan ona Andijon qal'asida qamalda qolib qanchalik iztirob chekkan bo'lsa, Samarqandda yetti oy davom etgan qamal holatida odamlarning ochlikdan "it etini, eshak etini yeyishga kirishgan"larini (Bobur) ko'rib, undan ham ko'proq azob tortgan. Shayboniyxon birinchi marta Samarqandni zabt etganida Farg'ona malikasi Qutlug'nigor Xonimning bir ota va bir onadan tug'ilgan opasi, Samarqand malikasi, marhum Sulton Ahmad Mirzoning jufti haloli Mehrnigor Xonimni o'z nikohiga olgan. Ikkinchi marta Samarqandni egallagach esa, Mehrnigor Xonimni taloq qo'yib, sulh evaziga xolasining o'rniga Qutlug'nigor Xonimning yakkayu yolg'iz, suyuqli, bokira qizi Xonzodabegimni nikohlab olish shartini qo'yadi, bunday og'ir shartni qbul qilish albatta ona uchun juda azobli edi. Ammo bundan o'zga chora ham yo'q edi. Sevimli qizining majburiyat ortida otasi tengi odamga o'zini qurbon qilishi, tug'ishgan opasining taloq qilinishi kabi malomatlarni ko'tarish Qutlug'nigor Xonim uchun oson bo'lmagan. Oriyatli malika qizi oldida ham, opasi qarshisida ham o'zini aybdor

his qilgan. Qutlug'nigor Xonim nafaqat turkiy xalqlar adabiyotida, jahon adabiyoti tarixida ham mahorat bilan yaratilgan mumtoz ona obrazidir. Qutlug'nigor Xonimning o'z mulki va mamlakatiga ega bo'lgan ukalari, eri Umarshayx Mirzoning marhamatlaridan ko'p bahramand bo'lgan Farg'onaning aksariyat beklari tul malikaning yosh va iste'dodli podshoh o'g'liga madad berishdan ko'ra, uni kuchsizlantirish yo'llarini izlaganlar. Qutlug'nigor Xonim o'z hayotining so'nggi kunlarigacha podshoh o'g'li bilan yagona yo'lda turib, uning istiqboli uchun o'zini fido qilgan: "...mening volidam – Qutlug'nigor Xonim edi. Aksar qazoqliklarda va fatarotlarda mening bilan bir edilar. Kobulni olg'ondin besh-olti oy so'ngra tarix to'qqiz yuz o'n birda tengri rahmatig'a bordilar". Ixcham iqtibosda farzand muhabbati bilan tirik bo'lgan mard, fidoyi onaning mukammal siymosi sanatkorona badiiy ifodasinitopgan "Boburnoma"da Qutlug'nigor Xonim obraziga xos ma'naviy go'zallikning mazkur qirrasini ochishga xizmat qiladigan lavhalar yana bor. Xususan, to'g'riso'z va haqiqatparast "Vaqoe" muallifi o'zining Kobul malikasi Zaynab Sultonbegimga munosabati orqali volidasi tabiatining ayni nozik qirrasini g'oyat ixcham, jozibali va mantiqan asosli ochadi. [3, 117] "Vaqoe" muallifi Qutlug'nigor Xonimning aslu nasabi haqida mukammal ma'lumot bergan. Bobur Mirzoning o'z volidasi Qutlug'nigor Xonimning o'n ikki pushti haqida ma'lumot berishi Sharq axloqiy –ta'limiy, badiiy-ilmiy, falsafiy ijtimoiy qarashlarining o'zak ma'no va mohiyatidan kelib chiqadi. Ayni ta'kid "Boburnoma"da talqin qilingan boshqa xotin-qizlar obraziga ham taalluqlidir: "Buyuk podshoh, shoh va shoirni dunyoga keltirib voyaga yetkazgan ,ulkan qalb egasi Qutlug' Nigorxonim hayoti davomida ijtimoiy va madaniy sohadagi faoliyati yaqol ko'zga tashlanmasligi mumkin, ammo u yurt tinchligi yo'lida harakat qilgan farzandi uchun hamisha tirkak bo'lib , eng og'ir vaziyatlarda ham uni qo'llab-quvvatlagan. Turmush o'rtog'i vafotidan so'ng og'ir kunlarni boshidan o'tkazga malika Qutlug' Nigorxonim, jondan aziz farzandi Xonzodabegimdan yiroqda, nevaralarini, Bobur Mirzo Hind diyorida bunyod etgan ulkan davlatni ko'rish nasib etmay bu yorug' olamdan ko'z yumadi. Bu orqali Qutlug' Nigorxonim tariximizda sadoqatli yor, jonkuyar volida, xalq tinchligi va el osoyishtaligi yo'lida o'rnak ko'rsatgan malika sifatida abadiy muhrlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – B. 11.
2. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent, 2000. – B.25.
3. Barotova J.X. Boburnomada xotin-qizlar obrazi talqini. Fil.f.b.f.d. (Phd) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2024. B 146.
4. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixiy Rashidiy.– Toshkent: Sharq NMAK, 2010. – B.114.
5. Kamolov I.N. Tarixiy-badiiy manbalarda Bobur obrazi talqiniga biografik yondashuv. Fil.f.b.f.d. (Phd) dissertatsiyasi. – Qarshi, 2022. B 147.
6. Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.22.
7. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
8. Turdiyev, B. (2021). The contribution of bobur and boburi dynasty to the renewal of world civilization. Центр Научных Публикаций (buxdu. uz), 5(5).